

«Suv-mo'jiza» tanloviga

**HAR VAQT  
TENGLASHISHIMIZ KERAK**

Suv haqida gapirganda, uning shildiroq, o'ynoqi ovozi qulog'imga chalingandek bo'ladi. Uning yana bir mo'jisasi ham shunda. Shuning uchun sharsharaning ovozi juda yoqadi. Uning ovozini eshitanimda, hayot ko'zimga yana-da go'zal ko'rindi. Chindan ham bu go'zal ne'matni ifloslantirish gunoh. Eshitishimcha, shahardagi turar joylarda suvni tejash maqsadida uni o'ichovchi asbob qo'yilgan ekan. Lekin biz o'zimiz uni asrashni o'rganishimiz kerak. Zero, suvni nafaqat uyimizda, balki har joyda va har vaqt tejashimiz kerak.

Zuhra IRISMATOVA,

Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi  
17-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi

**«MEHRINGGA  
TASANNO MEHRJON»**



Mirzo Ulug'bek tumanidagi 248-maktabda «Mehringga tasanno mehrjon» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda tumandagi maktablardan o'n sakkiztasi ishtirok etib, o'zarob bellashdilar. Tuman ma'naviyat va ma'rifat kengashi mas'ul kotibi Halima Jumaniyozova tadbirni ochib, bu bayram ildizlari judayam uzoq o'tmishlarga taqalishi, uning tarbiyaviy ahamiyati kattaligi haqida zalda yig'ilgan o'quvchilarga qiziq-qiziq rivoyatlar asosida ma'lumot berdi.

Tanaffus chog'ida Xusniddin aka Ismoilov rahbarligidagi tuman o'quvchilar ijodiyot markazida faoliyat olib borayotgan «Nilufar» raqqosa qizlar dastasi ijro etgan bir-biridan go'zal raqslar ko'pchilikning havasini keltirdi.

Tanlov ishtirokchilari sovg'alar bilan taqdirlandilar.

O'z muxbirimiz

*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

**Tong YULDUZI**

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil  
3-noyabr  
N:44  
(66689)

Eshitmadim demanglar!

Eshitmaganlar armonda qolmanglar!



Birinchi navbatda Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi maktablar va maktabgacha tarbiya muassasalariga!

Mamlakatimizning porloq kelajagini yaratishga qat'iy bel bog'lagan litsey va kollej talabalariiga!

Eng sevimli nashrlaringiz «Tong yulduzi», «Klass» gazetalari hamda «Gulxan» va «G'uncha»

jurnallariga 2009-yil uchun obunani eng ko'p tashkil qilgan quydagilarga noshir «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan qimmataho sovrinlar ajratildi. Ular quydagicha:

Bu mukofotlar «Obuna – 2009» mavsumi yakuniga ko'ra, noshir va gazeta-jurnallar tahririyatlari komissiyasi tomonidan 1-3-o'rnlarga qarab taqsimlanadi va sovrindorlarga tantanali ravishda topshiriladi. Bundan tashqari, hay'at nashrlarning eng ibratli tashviqotchilarini 13 ta magnitofon bilan taqdirlashni rejalashtirgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar, tumanlar xalq ta'limi bo'limlarini, maktablar, litsey va kollejlар jamoalarini «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» gazeta-jurnallari uchun «Obuna – 2009» mavsumini namunali tashkil etishga da'vat etamiz.

Maktablar va eng faol tashkilotchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va viloyatlar xalq ta'limi



1. «Eng namunali Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.

2. «Eng namunali tuman xalq ta'limi bo'limi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.

3. «Eng namunali maktab, litsey, kollej»ga 6 ta sovrin: 3 dona televizor, 3 dona magnitofon.

boshqarmalarining tavsiyasiga binoan aniqlanadi. Natijalar obunani qabul qilib olgan aloqa bo'limi tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi shart. G'oliblar yil so'ngida Respublika hay'ati tomonidan obuna yakuniga ko'ra aniqlanadi va kelgusi yilda gazetamizning ilk sonida e'lon qilinadi.

«Obuna – 2009» mavsumini namunali tashkil qiling va sovrindorlar safidan o'rın oling!



**HAMMA, HAMMA,  
HAMMAGA!!!**

**Soxta  
qo'ng'iroq**

**4-bet**

**Yoqamni ushlab  
goldim...**

**5-bet**



2008 Tong yulduzi  
3-noyabr

## Shaharning o'n ikki darvozasi ham Sohibqiron bobongiz ko'rsatmasi bilan barpo etilgandi

TOSHKENT - 2200

### AMIR TEMUR

Toshkent O'zbek davlatchiligi tarixida alohida o'rin tutgan shaharlardan biri hisoblanadi. Amir Temur bobongizning bu shaharga samimiy mehr-muhabbatda bo'lganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Buyuk Sohibqiron 1363-64-yilning qish oyini shu yerda o'tkazgan va shahar mudofaa devorlarini mustahkamlashni hamda Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin buva, Xo'ja Alambardor kabi ulug' zotlar

mangu manzillarini obod etgan.

Toshkentda «Mosh tabib» degan kishi uni davolagan.

Fosih Navofiy o'zining «Mujmali Fosihiy» asarida quydigilarni yozadi: «Amir Sohibqiron hazratlari Shohruh Sulton va Jahongirning o'g'li amirzoda Pirmuhammadni Toshkentdan Samarcandga jo'natdi. Bahorda To'xtamishxonni mag'lub etish uchun Dashti Qipchoqqa yuzlandi. Uni mag'lub etib, katta o'la bilan Toshkentga sog'-salomat qaytib keldi. Shu yerda Amir Sohibqiron Mironshoh Ko'ragonga Xuroson hokimligini topshirdi va jo'nashga ruxsat berdi».

Amir Temur bobongizning buyrug'i bilan Zangi ota manzilgohida katta qurilish ishlari olib borildi. Qabr ustidagi maqbara shaxsan uning buyrug'i bilan qurilgan. Oldi peshtoqi esa u zotning suyukli nevarasi Ulug'bek Mirzo tomonidan bунyod etilgan.

Shaharning o'n ikki darvozasi ham Sohibqiron bobongiz ko'rsatmasi bilan barpo etilgandi.

Istiqloldan so'ng adolat qaror topib, Toshkentning eng so'lim va markaziy xiyobonida Amir Temur bobongizning mahobatli haykali o'rnatildi. Ko'rningizmi, aziz bolalar, kimki har manzilni e'zoz tutsa; qadrlasa, obod etsa, minnatdor avlodlar uning nomini unutmaydi.

### USTAXONAMIZ BOR

Mehnat darsini juda yaxshi ko'rganimiz uchun maktabimizda o'g'il bolalar uchun ustaxona tashkil qilingan. Biz qizlar esa alohida mehnat xonamizda kashtachilik, to'quvchilik hunarlarini o'rganamiz. Sport zalimiz ham yaqinda qayta ta'mirdan chiqdi. Shuning uchun maktabimizdan faqat bilimli emas, hunarli o'quvchilar yetishib chiqishadi.

Risolat MIRZAYEVA,  
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi  
18-maktab o'quvchisi

### XUSHVAQT BOBO BOSH BO'LDI



Qishloq o'quvchilari haqida o'ylaganmisiz? Bu savol sizni hech o'yantirganmi? Bilasizmi, bizning tomonlarda ichimlik suvi sotib olinadi. Maktabimiz ham uzoqroqda joylashgan. Qishda yo'llarda qynalmay maktabga borib kelishimiz uchun oqsoqolimiz Xushvaqt bobo Kenjayev asfaltlash ishlariiga bosh bo'lmoqdalar. Maktabimizdagи sharoitlarning yaxshilanishi uchun «Kamolot» YOIH ko'mak bermoqda.

Gulasal XUSHVAQTOVA

### RASMIM CHIQDI


Ha, men chizgan suratlarimni «Tong yulduzi»ga yuborgan edim. Ular gazetada bosilib chiqqach, do'stlarim ham qiziqib qolishdi. Endi bizning maktabda hamma o'quvchilar sizlarga maktub yozib, hatto obuna bo'lishmoqchi.

Asolat PO'LATOVA,  
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi  
29-maktab o'quvchisi

### ERTAGA KECH BO'LMASIN...

Kattalarning: «Eh, qani endi yoshligim qaytsa, bundoq ishlar qilardim...» degan gaplarini eshitgansiz-a? Ular o'tgan umrlariga ba'zan achinib qolishadi. Shuning uchun biz yoshlikdan foydalaniib, ko'p ishlar qilib qolishimiz kerak. Zero, ertaga kech bo'lmasin, o'tgan umrimizga sira achinmaylik!

Gulandom ZIYODULLAYEV,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani



### «SARALASH»

«Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi Tibbiy ijtimoiy markazi, «Gideon Rixter» farmatsevtika kompaniyalari bilan hamkorlikda Toshkent Turizm kasb-hunar kollejida «Qarindosh-urug» o'rtaida tuzilgan nikoh oqibatlari, irlsiy kasalliklar, tug'ma nogironlar tug'ilishini oldini olish» mavzuida kengaytirilgan davra suhbat o'tkazildi. Seminarda bevosita Respublika Skrining markazi mutaxassislari, tibbiy ijtimoiy markaz va jamg'arma xodimlari hamda hamkor kompaniya vakillari ishtirot etdilar.

Skrining (yoki boshqacha aytganda – saralash) bu oddiy usullar yordamida kasallikni erta va tez aniqlash uchun aholini ommaviy tekshiruvdan o'tkazishdan iborat.


Ushbu Skrining markazi eng oxirgi zamona viy tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan va o'zining malakali xodimlariga ega.

O'tkazilgan suhbat so'ngida o'quvchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, tavsiya va ko'rsatmalar berildi, ularni qiziqitqigan savollarga mutaxassislar tomonidan javob qaytarildi.

### LITSEYIMNI YAXSHI KO'RAMAN

Xitoy, koreys, fors tillarini o'rganishni istaysizmi? Ha, til bilganga nima yetsin?! Men ham shu istakda Yunusobod tumanidagi xorijiy tillar akademik litseyida tahsil olmoqdaman. Fors tilida so'zlashish juda qiziq ekan. Bilasizmi, men litseyimni juda yaxshi ko'raman. O'qishni istamaydigan ba'zi tengdoshlarimni ko'rib, hayron bo'laman. Axir hozirgi ta'lim maskanlarimiz bir-biridan chiroli va zamona viy. Ustozlarimiz malakali. Masalan, litseyimizning fidoyi o'qituvchilari Muhabbat opa Pirnazarova, Mastura opa Hayitova, Nafisa opa Yusupova va direktori Shavkat aka Oripovlari hammamiz hurmat qilamiz. Litseyimiz xonalari chet davlatlarining elchixonalari tomonidan jihozlangan. Sizning litseyingiz qanday? Uni yaxshi ko'rasizmi?

Shahlo XOLMATOVA,  
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi  
xorijiy tillar akademik  
litseyining 202-guruhi o'quvchisi



### HAVAS QILAMAN

Ishonasizmi, mening do'stim Sirojbek Sayfullayev 1991-yil 1-sentabrda tug'ilgan. U juda omadli bola. Mana bu yil poytaxtdagi Jalon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishga kirib, hozirda yaxshi baholarga o'qimoqda. Bizunga juda havas qilamiz.

Jobir ISMATULLAYEV,  
Qashqadaryo viloyati, Koson tumani

## MEN NOSHIR BO'LMOQCHIMAN



Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi ijtimoiy yo'nalishga ixtisoslashgan Respublika maktabi o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan bilim maskanlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilarning puxta bilim olishlarini ta'minlash bilan bir qatorda, turli uchrashuv va tadbirlarni tez-tez o'tkazib borish tufayli ularning salohiyati oshib borishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Kuni kecha mazkur maktabning 7-«E» sinf rahbari Gulnora opa Murodova boshchiligidagi «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyiga sayohat uyuştirdilar. Bolalarni kasbga yo'naltirish, ularga turli sohalar bo'yicha ma'lumot berish maqsadida tashkil etilgan bu tadbir o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

O'quvchilarning ko'pchiligi «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan», «G'uncha» jurnallariga obuna bo'lib, bu nashrlarni muntazam o'qib borishlari bois ularni chop etilish jarayonini ko'rish maroqli edi.

Tanishuv borasida ayrim o'quvchilarni fikrlari bilan qiziqdik. Zuhra Umarbekovaga muqovani chop etish jarayoni judayam yoqibdi. Kelajakda jurnalist bo'lish orzusidagi bu o'quvchining taassurotlari katta ekani porlab turgan ko'zlaridan ma'lum edi. Rustam Xolpo'latovga esa kitoblarni yelimalsh jarayoni qiziqarli tuyulibdi.

«Tong yulduzi» gazetasining doimiy obunachisi bo'lgan Gayhar Komilova o'zining sevimli gazetasi chop etiladigan bo'limda bo'lganida to'lqinlanib ketdi.

O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga yuqori malakali mutaxassislardan to'laqonli javoblarga ham ega bo'ldilar. Sayohat so'ngida o'quvchilarga nashriyotda chop etilgan turli xildagi kitoblar sovg'a qilindi.

Fayzullo DO'ST



Zuhra MUXSIMOVA  
olgan surat-lavhalalar

Bir bor ekan-da, yo'q ekan, hayvonot bog'ida uzoq hind yurtidan keltirilgan ular fil bor ekan. Uni hayvonot bog'inining eng so'lim joyida saqlashar, tekin ovqat berishib siylashar, bolalar esa yegulik olib kelib, uni xursand qilishar ekan. Bu siyovlardan taltaygan fil bora-bora hech bir hayvонни mensimay qolibdi. Bog'dagi maymunni masxara qilar, timsohni oyog'i bilan ezg'ilab, suvg'a tushishga qo'ymas, hatto baliqlarni ham hol-joniga qo'ymas ekan. Barcha hayvonlar ayuhannos solishar, ammo ularning dardlariga quloq solmas, hatto xizmatkorlar ham barcha hayvonlar nimaga shovqin qolishdi, deya e'tibor berishmas ekan. Shunday kunlarning birida hayvonot bog'ida sichqon paydo bo'lib, ularning dardlarini tinglabdi-da: — Men sizlarga yordam beraman! — debdi. Tulki uning ustida dan kulibdi, qarg'a qag'illab istehzo qilibdi, xo'roz masxaraomuz ohangda qichqirib, uni cho'qibdi, ammo vazmin sher: — Kelinglar, unga imkon beraylik! — debdi. Sichqon unga minnatdorlik bildirib, filning yaqiniga borib, uning yerga uzala tushishini kutibdi. Hayvonlar nima bo'larkin, deya nafaslarini ichiga yutib, kutib turishibdi.

Tushlikda fil suvg'a tushib cho'milibdi va sohiliga chiqib qumga ag'anabdi. Xuddi shu paytda sichqon uning yoniga borib, lip etib

boshiga chiqibdi-da, qulog'iga kirib olib tishlagan ekan, fil jon achchig'ida o'midan turib o'kirib yuboribdi. Sichqon kechgacha unga azob beribdi. Fil na'ra tortib, butun hayvonot bog'i bo'ylab yuguribdi. «Qulog'imdan chiq, bo'ldi!» desa ham, sichqon unga qulq solmabdi.

Hayvonot bog'i rahbarlari filni tinchlantrish uchun rosa ovora bo'lishibdi, hatto eng zo'r filbonlarni ham yo'llashib, chorasin topisholmabdi.


Ulardan najot chiqmasligini ko'rgan fil sichqonga: — Nima shartning bo'lsa, ayt, roziman, ammo menga azob berishni bas qil, — debdi.

Sichqon unga barcha hayvonlar bilan hamjihat yashasa, qulog'idan chiqishini

a y t g a n  
fil e k a n ,  
azobdan  
joni halqumiga  
kelgan fil darhol rozi  
bo'libdi.

Sichqon tap etib yerga tushgan zahoti fil yengil tortibdi. Shunday yengil tortibdiki, irg'ishlab-irg'ishlab o'ynagisi kelibdi, ammo nodonligidan, qilgan ishlaridan uyalib, yer chizib qolibdi. Bir payt qarasa, barcha hayvonlar unga qarab turgan ekan. Shu zahoti ulardan kechirim so'rabdi. Shundan so'ng, hayvonot bog'idagi barcha hayvonlar ahil yashay boshlashibdi. Bundan bog'rahbarlari ham xursand bo'lishibdi.

Shu-shu fil sichqonni ko'rsa, qo'rqib, cho'chib o'zini orqaga olar ekan.



## MAQTANCHOO

dan kulibdi, qarg'a qag'illab istehzo qilibdi, xo'roz masxaraomuz ohangda qichqirib, uni cho'qibdi, ammo vazmin sher: — Kelinglar, unga imkon beraylik! — debdi. Sichqon unga minnatdorlik bildirib, filning yaqiniga borib, uning yerga uzala tushishini kutibdi. Hayvonlar nima bo'larkin, deya nafaslarini ichiga yutib, kutib turishibdi.

Tushlikda fil suvg'a tushib cho'milibdi va sohiliga chiqib qumga ag'anabdi. Xuddi shu paytda sichqon uning yoniga borib, lip etib

Kashandalik bugungi kunda yoshlar orasida hoyu-havas yoki moda uchun, do'stlari orasida boshqalardan ajralib turish, o'zlarini ko'rsatish uchun urf bo'lgan zararli odatga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, chekishning sababini bilishga harakat qilinganda, 8-10 yoshdagagi maktab bolalari, bilim yurti o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida: o'rtog'i taklif qilganlar 5,9-27,1%ni, havas qilganlar 19,0-24,7%ni, o'zini katta qilib ko'rsatmoqchi bo'lganlar 2,3-9,4%ni va sababini bilmaganlar 48,5-60,1%ni tashkil qilganlar. Umuman, bu zararli odatga olib keluvchi bahona va sabablar juda ko'p.

Lekin, ertaga-chi, ertaga shunchaki hoyu-havas uchun tamaki chekayotgan o'smirlar undan-da beshafqat bo'lgan og'u, spiritli ichimliklarga nisbatan tobe bo'lib qolmasmikanlar?

Hozirgacha o'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlar tamaki tarkibida 4000 dan ortiq inson organizmi uchun o'ta zaharli moddalar va birikmalarning borligi aniqlangan. Bu zaharli moddalarning qatoriga metan (kanalizatsiya gazi), nikotin (hasharotlarni qirishda keng ishlatalidi), ammoniy (hojatxonalarini tozalashda ishlatalidi), karbonat angidrid (o'pkada kislorod singishiga to'g'anoq bo'ladigan zaharli gaz), butan, geksam (ko'mir), kadmiy (bateareya), metanol (raketa yoqilg'isi), sianid kislota vodorod sulfid, formaldegid, kanserogen

## TO'XTA, YANA BIR BOR O'YLAB KO'R!

uglevodorod, radioaktiv poloniy, benzpiren (rak chaqiruvchi), is gazi va boshqa ko'pgina kimyoiy moddalar kiradi. Shuningdek, har bir sigaretada rodon degan radioaktiv modda mavjud. Uning miqdori taxminan 120 ta ko'krak rentgeniga teng.

Qani, endi aytning-chi, o'zidan shu qadar ko'p radiatsiya tarqatadigan, o'z ichiga shuncha zaharni olgan bironta boshqa o'simlikni bilasizmi? Bas, shunday ekan, tamakini og'izga olishdan oldin bir bor o'ylab ko'rish vaqtini kelmadimikan?!

Lekin, afsuski, bugungi kunda ko'pchilik yoshlar,

ayniqsa, xotin-qizlar bu haqda umuman bosh qotirmayaptilar. Aksincha, tarkibida «smola»si kam hisoblanmish «yengil», «mayin» tamakilarni zarari kam deb hisoblab, to'xtovsiz chekmoqdalar. Shuni esda tutish kerakki, nikotin ta'sirida asab tizimining ishi vaqtincha yaxshilangani bilan miyaning energetik quvvati pasayadi. Natijada, kishi aqlyi mehnat bilan shug'ullanganda, ketma-ket chekadi, bosib chekish natijasida organizm tamakidan kuchli zaharlanadi, kishining boshi og'riydi, rang o'chadi, og'zi quriydi va taxir maza sezadi. Miya faoliyatini yaxshilash maqsadida chekilgan narsa endi kishini o'ta horitib qo'yadigan zararga aylanadi.

Xalqaro bank yordamida o'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 2010-yilda Xitoyda tamaki chekish natijasida bir yilda 100 mln. xitoylik hayotdan ko'z yumishi mumkin ekan. Boshqa tibbiyot jurnalida yozilishicha, tamaki tarkibidagi zaharli moddalarning ta'siridan 29 yoshgacha bo'lganlarning 100 mln.i vafot etar ekan.

Kashandalikka qarshi quyidagi ishlar amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Radio, televideniye, matbuotlar orqali chekishning zaharli oqibatlarini tashviqot-targ'ibot ishlari ko'rinishida muntazam ravishda olib borish.

2. Chekishning oldini olishdagi profilaktik ishlarni bolalikdan boshlash.

3. Tamaki tutunining zaharli ta'sirlarini kamaytirish.

4. Har kuni, har soatda sigaret ushlab, uni beayov tutatayotgan yigit-qizlar, yosh o'smirlarga bir og'iz bo'lsa ham nasihat qilib qo'yish.

5. Bolalarimiza berilayotgan pulni nima uchun va nimalarga sarflanayotganini nazorat etib turish.

Nafaqat yurtimizda, balki butun jahonda «kashanda»lar bor ekan, hozir ko'tarilgan mavzu hamisha dolzarbigicha qolaveradi. Faqat biz bunga befarq bo'imasak bas.

Jamila KOMILOVA,  
Toshkent Davlat texnika universitetining Ibn Sino «Salomatlik maskani» xodimi



# BILAG'ONGA SOVG'AM BOR



Men Nilufar Xolmatova Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi 17-o'rta umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qiyman. Tasviriy san'atga ishtiyoqim baland. Ayniqsa, tabiat manzaralarini tasvirlash jon-u dilim. Portret janriga ham qiziqaman.



Qani, toping-chi, bu kimning surati?  
Birinchi bo'lib tahririyatga to'g'ri javob yo'llagan tengdoshimga sirli sovg'am bor.

## TOPISHMOQLAR

Shiftga osilib turar,  
Yerga qarab o'y surar.  
Undan yog'iladi nur,  
Ko'ylagi shaffof, billur.  
Unga boqib yashnar dil,  
Nomidir uning ...


Biram xushbo'y hidli suv,  
Shishachada bo'lar u.  
Ham yigit, ham qizlarga,  
Kerak bo'lar bizlarga.

Yog'och quti naqshinkor,  
Ikkita qulog'i bor.  
Qadim, eski jamardon,  
Nomini topgin shu on.

Uchadi, kapalakmas,  
Tovlanar, kamalakmas.  
Ba'zan gapiradi u,  
O'rtoqjon, ayt, nima bu?

Hilola RO'ZIYEVA

## Rasmlarning 7 ta farqini toping



## ONA

Onasiz kulgu bo'lmas,  
Onasiz ko'ngil to'lmas.  
Onasiz quvonch bo'lmas,  
Onasiz hayot bo'lmas.  
Shunday ekan, azizlar,  
Asraylik biz onalar!



Aziza JALILOVA,  
S.Rahimov tumanidagi  
249-maktabning 6-sinf o'quvchisi

## SUMALAKNING MAZASI QANDAY?

Bu voqeal o'tgan yili qahraton qish kunlarining birida sodir bo'lgandi. Qo'shni opoqi biznikiga chiqib, oyimga ukam Nodirning ko'chada sumalak yalab turganini ko'rganini aytib qoldi.

Koyiganimiz bilan, u tan olmaydi. Shunda oyim ikkimiz bir hiyla ishlatalishga kelishib oldik.

– Tarnovdag'i sumalaklarni qaragin, quyosh nurlarida bir chiroyli tovlanib turibdi. Ta'mi ham juda shirindir, bittasini yalab ko'rsammikin-a, – dedilar oyim menga pinhona ko'z qisib.

– Oyijon, yemang, sumalakning mazasi shirin emas. Xuddi suvg'a o'xshaydi, – deya o'z sirini o'zi ochib qo'ydi ukam.



Mafstuna BOTIROVA

## SHART

Ko'zini chirt yumib olgan uch yoshli Sanjar dedi:  
– Agar shokolad bermasangiz, ko'zlarimni sira ochmayman. Hammangiz qorong'uda o'tirasiz...

## NOM

– Oyi, Botirlar itiga nom qo'yishni bilishmas ekan, – dedi olti yoshli Davron.  
– Nega unday deysan? – so'radi onasi.  
– Mana bizning itimiz qora bo'lgani uchun uni Qoravoy deb ataymiz. Ularniki To'rtko'z. Yaxshilab qaradim, ko'zi to'rtta emas, ikkita ekan...



BOLALAR XANDASI

## SOXTA QO'NG'IROQ

Biz tanaffusni juda yaxshi ko'ramiz. Hatto oramizda qachon qo'ng'irop chalinar ekan, deb sabr sizlik bilan kudiganlar ham bor. Ayrim tengdoshlarimiz uyali telefonlariga qo'ng'irop ovozini yozdirib olishganiga nima deysiz?! Bir kuni sinfdoshimiz telefonidagi ana shunday soxta qo'ng'irop ovozini bosib yubordi. O'qituvchimiz ham bunga ishonib, darsni erta tugatdilar. Shunday qilib, biz vaqtidan avval tanaffusga chiqdik. Bu hol bir necha marotaba takrorlandi. Men hamma qatori dam olish uchun sinfdan chiqib ketar ekanman, har gal ko'nglim g'ash bo'ladi. Axir tanaffus qanchalik maroqli bo'lmasin, o'z vaqtida va me'yorida bo'lgani yaxshi-da. Chunki biz uchun muhim shu darslar, ularda olayotgan bilimimizdir. Shuning uchun o'zimizni o'zimiz aldamaylik, ustozlarimizning berayotgan saboqlarini qadrlaylik.

Mafstuna  
HAQBERDIYEVA



## Siz nima deysiz?

so'kishni o'ylab topish bo'yicha ham kim yutarga o'ynashibdi. Qarang-ki, shu qizaloq yutganmish. Buni eshitib, yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Nomusdan, uyatdan yuzlarim qizardi.

Inson qalbining o'z to'lqini, o'z mavji, o'z sozi bor. Bu soz faqat yaxshilikka xizmat qilishi kerak. Bu soz qizaloqlarga nafislikni, o'g'il bolalarga esa mard-u maydonlikni ato etishi kerak. Aslida ham shunday. Bu ikki jinsga shu ikki fazilat ato etilgan. Uni asrash, kamolot sari otlatnirish o'g'il-qizlarning o'z qo'lida.

Men qizlarimizga bir savol bermoqchiman:  
Qizlar, so'kishning oldini olish mumkinmi?  
Siz bu savolga javob topishga urinavering-u, men

## YOQAMNI USHLAB QOLDIM

Vo ajab, yoqamni ushlab qoldim-a! Tappa-tuzuk qizlar birpasda aynisa-qolsa... Birpasda yuzlaridagi nafislik o'rnni qo'pollik egallasa, og'izlaridan bodi kirib, shodi chiqsa-ya! Kimga dodingni aytasan-u, kimga shikoyat qilasan? Kimdan ayb qidiras... Men shular haqida o'ylab, esim og'ib qolay dedi. Axir ilgari hatto o'g'il bolalarning og'zidan ham so'kish eshitilmasdi. Endi esa o'g'il bolalar qolib, ayrim qizlar ham so'kina boshlashibdi-ya.

Havas qilsa arzilik qizlar ham bor. Bunday shirin-shakar qizlar o'zlarining kimligini, kimning avlodni ekanliklarini biladilar. Avlod sha'nini, otonalari, qolaversa, o'z sha'nlarini muqaddas biladilar. Go'zallikni odamlar o'tasida o'zlarini tuta bilihsda deb biladilar. Ehtimol, shuning uchun ham hali maktabni bitirmayoq, unday qizlarning ko'cha eshigi oldini supurib ketuvchilar (ya'ni, sovchilar) paydo bo'ladi.

Bir o'smir qizaloq g'irt bolacha so'kishning o'n besh xilini bilarkan. U dugonalari bilan kim ko'p so'kishga musobaqalashibdi. Bugina emas, ular hatto hali shu paytgacha ishlatilmagan yangi

ham dilimdagini aytqaolay. So'kinishning oldini olish mumkin. Aytmoqchi bo'lganda tilini tishlasa, bas. U yoki bu qiz unga haqoratlari, uytli so'zlarni ilk bor o'rgatgan, «Aytaver, hech narsa qilmaydi. Bu bilan o'zingni himoya qilasan», deb ruhlantirgan insondan nari yurishi lozim. So'kish modalari, o'shang amos kiyinishlari bilan maqtanmasinlar. Zero, atlas ko'ylik kiygan qiz hech qachon yomon so'zlarni og'ziga olmaydi.

Eh, qizlar, qizlar, qizlarjon, orangizda shunday dugonalaringiz paydo bo'lganidan va bo'layotganidan achinib ketdim. Og'izdan chiquvchi so'zlar pokligi, shirinligi uchun birlgilida harakat qilaylik. Axir bu umuminsoniy xislats-ku. Qiz bolaning chiroyli odobi, nafis olami ertangi kun uchun xizmat qiladi. Chunki u kelajakda yangi avlodni voyaga yetkazadi. Bugunning jismoniy va aqliy pokligi, zukkoligi, nomusi va ori ertanining tiniq kuni uchun zamindir.

Yayra SA'DULLAYEVA

**TAHRIRIYATDAN:** Maqola muallifini yaxshi taniysiz. Yayra opangiz uzoq yillar matbuot sohasida barakali xizmat qildilar. Ko'pni ko'rigan, xo'pni bilgan onaxonning kuyunchaklik bilan bitganlari, albatta, ko'pchilikni, biringchi galda, ota-onalarni o'ylantirib qo'yadi, deb o'ylaymiz. Zero, «Qush uyasida ko'riganini qiladi», deydilar. Oramizda so'kishni odat qilayotgan ba'zi qizlar uchrayotgan ekan, bunga befarq bo'lish o'zimizga, o'zligimizga ziyon ekanligini unutmaylik. Fikr-mulohazalarining kutamiz.

## KATTA BOBO BEKATI

Bolalar!

Sizlar uchun «Katta bobo bekti»ni ochdik.

Shunday bekat kerak, deb o'ylaymiz. Siz-chi? Siz bugun Katta bobongizning gaplarini b-l-i-r tinglab ko'ring, so'ngira fikrlashamiz.

\*\*\*

Manim jippi bolalarim!

Kimki hayotni o'rganmas ekan, u hech narsaga erisholmaydi. Kel, sen bilan bu to'g'rida mushohada qilib ko'raylik. Xo'p, mana, birovlar nasihatni xush ko'rishmaydi, oqibatda, o'zgalarni ham tinglamaydi, o'zi uchun ham biror narsa olmaydi. Qalbini ya-a-ax-shi so'zlar bilan ziynatlamagan bola ertaga aql-l-i inson bo'lishi mumkinmi? U chayon odamga aylansa-chi?! Uni yomon odam deydilar.


Yomon odam kimga o'xshaydi? Ko'mirga. U kuydirmasa ham, bir kun kelib nomingni qora qildi. Rahmsiz kishilar birovning kulfatidan shodlanadilar. Xudbinlar esa zaif bo'ladilar. Ha-ay, bolam-a, bobom nasihatni ko'paytirib yubordi-yov, dersan. Bu gaplarni senga aytaman-da, bolam!

Fosiqdan hayo tilama,  
Zolimdan vafo tilama,

deydilar hazrati Alisher Navoiy bobongiz. «Yaxshiga kamol, yomonga zavol», bolam. Zavol topma, deyman. Bir men emas, hamma yaxshilar senga shuni tilaydi. Siz esa, aziz bolajonlar, yaxshi odam bo'lishni, obro'e'tibor qozonishni xohlaysiz. Shu Vatanga, elga munosib farzand bo'lsang, ota-onang tugul butun el'shodlanadi. Ana, telvizo'dan ko'rib turibsan, sportchi bolalarim dunyonni qoyil qilib kelyapti. G'olibrarni xalq qanday xursandehilik bilan olqishlayotganini ko'rib turibsan. O'shalardan o'mak ol-da, bolam. Hay, qolganini keyin gaplashamiz. Salomat bo'li!

\*\*\*


Fikrlaringizni «Qalb oynasi»ga yozib yuboring. Xatlarining o'qib ko'rib, Katta bobongiz yana sizlar bilan mushohada yuritadilar. Hozircha u kishiga rahmat!



Internet xabarları

## UOLT DISNEY BAYRAMI

Mikki Maus, Donald Dak va boshqa yuzlab multfilm qahramonlari Amerikaning mashhur Uolt Disney kinostudiyasida 85 yillik bayramlarini nishonladilar. Uolt Disney studiyasi 1923-yilning 16-oktabrida tashkil topgan edi. Aynan shu kuni Disney Kaliforniyada «Alisaning g'aroyib sarguzashtlari» hamda «Alisa ko'zgu orti mamlakatida» multfilmlarini ishlab chiqarish bo'yicha shartnomaga imzo chekkan.



Keyingi o'n yil davomida esa «Sohibjamol va mahluq», «Oppog'oy va yetti gnom», «Olovuddin» kabi multfilmlar bolajonlar qalbidan joy oldi. So'nggi yillarda studiya o'z mavqeini yo'qotmagan holda «Qirol sher» va «O'yinchoqlar tarixi» deb nomlangan multfilmlarni tomoshabinlar e'tiboriga havola etdi.


## 6 EGIZAK DUNYOGA KELDI

Berlinda olti egizak: ikki o'g'il va to'rt qizcha dunyoga keldi. Bu voqeal tez orada shov-shuv bo'lishiga sabab bo'ldi. Chunki oxirgi marta bunday noyob hodisa bir asr oldin yuz bergan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1986-yilda Germaniyada tug'ilgan olti egizak hayoti xavf ostida qolgan. Berlinda dunyoga kelgan egizaklar va ularning onalarini shifokorlar tekshiruvdan o'tkazib, chaqaloqlarning ahvoli yaxshi ekanini ma'lum qildilar. Egizaklarning og'irligi 800 grammidan 900 grammgacha ekanligi aniqlandi. Shifokorlar 6 egizakning hammasi saqlab qolinsa, bu hol mo'jizaga aylanishini ta'kidlab o'tdilar.



## UCHUVCHI BOLAJONLAR

Singapur Havo yo'llari 2008-yilning 1-oktabridan boshlab kichkintoylar uchun maxsus taomnomasi tashkil qildi. Endilikda bortdagidagi bolalar tushligi mashhur multfilm qahramonlari aks ettirilgan yorqin idishlarda taqdim etiladi. Ushbu g'oya Singapurdagi har yili nishonlanadigan «1-oktabr – Bolalar kuni»ga bag'ishlandi. Bolajonlar taomnomasi 7 soat davomidagi barcha reyslarga kiritilgan. Ushbu taomnomasi bolalar sevib iste'mol qiladigan taomlar: sendvich, tovuqdan tayyorlanadigan salatlar, spaghetti va frikadelkalar bilan boyitilgan. Bundan tashqari, parvoz davomida multfilm, kino tomosha qilish bilan birga, turli o'yinchoqlar o'ynashlariga ham imkoniyat yaratildi.



## ZARARLI O'YINCHOQLAR


Moskvada yanvardan sentabrga qadar 129 ta savdo korxonalarini tekshirilib, 1086 ta bolalar o'yinchoqlari sotuvdan olib tashlandi. Mutaxassislar 165 ta o'yinchoqni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazishganda, ulardan 4 donasi sanitari-gigiyenik talablarga javob bermasligi aniqlangan. Tekshiruv natijasida «Bebi Lend», «Danaya» korxonalarini, shu bilan birga, «Vendi», «Persey» kabi tashkilotlar sanitari-gigiyenik ko'rikdan o'tmaganligi ma'lum bo'ldi. Talabga javob bermaydigan o'yinchoqlarni sotayotgan korxonalariga jarima solindi. Natijada, bolalar sog'lig'i uchun zarar keltiruvchi o'yinchoqlarni sotuvdan olib tashlangan.



ZEBO qiz tayyorladi

O'zbekiston Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalarini va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tavsiyasi asosida chop etilmoqda.

SOG'INCH



Yulduzday chaqnagan ko'zlar qarosi Tanamda titragan jomim balosi. Yuzing chiroyi so'zing bolidan, Malham olib turar dilim yarosi.

**VATAN ISHQI**

Vatan ishqisi yurakda axir  
Jo'sh uradi xuddi to'lqinday.  
Qayda bo'ima, qay joyga borma  
U yo'lingda ochilar gulday.

Baxtiyor DAVLETOV,  
Urganch ijtimoiy-iqtisodiyot kasb-hunar  
kollejining 1-bosqich tolibi

O'zi taxir, dumaloq,  
Ichi to'la qizaloq.  
Qizlari qizil rangda,  
O'sar bizning Vatanda.  
Top-chi, singlim Bibijon  
Bu meva juda nordon.

Topishmoqning javobin,  
O'yamasdan aytaman.  
Bu meva anorligin  
Isbotlashga qaytaman.

Nilufar MATKARIMOVA,  
Xorazm viloyati, Urganch tumanidagi  
38-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi

**NON**

Ko'zga surting nonni siz,  
Isrof etmang hech qachon.  
Alloh bergan ne'mat bu,  
Qadrini biling osmon.

Non mo'ib o'sin va lekin  
Uvolidan qaytinglar.  
Alloh bergan ne'mat bu  
Deb shukrona aytinlar.

**SHAMOL**

Mayin shamol esadi  
O'lkamizni kezadi.  
Daraxtlar munchoq taqib,  
Ko'chamizni bezadi.

Mayin shamol esadi,  
Mayin nurlar sizadi.  
Borliq uyg'onar sekin  
Qushlar bazm tuzadi...



Iroda SAIDOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
2-o'rta maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi

**PALTO**

Halimabonu maktabdan keliboq, uyg'a kirar-kirmas egnidagi opasi Hamidaning eski paltosini devanga irg'itdi. U o'zicha xursand. Mana, niyoyat navbatdagi o'qish

haftaligining oxirgi kuni ham o'tdi. Ertaga yakshanba. Halima uchun qo'shaloq bayram. Birinchisi dam olish kuni bo'lsa, ikkinchisi u o'n to'rt yoshga kirdi. Qiziq, ota-onasi bu safar uni qanday so'vg'a bilan siylar ekanlar-a?!

Kutilganidek, kechki ovqatdan so'ng barcha oila a'zolari yig'ilishib, ertaga tug'ilajak «chaqaloq»qa nima sovg'a qilish borasida gaplashishdi. Bu xonardon egalari ko'pchilik qatori o'rta-miyona oila edi. Har kimdan turfa takliflar tushdi. Lekin oila boshlig'i Ubaydulla akaning kiritgan taklifi barchaga ma'qul bo'ldi. Shunday qilib, Halimabonuga yangi palto sovg'a qilinadigan bo'ldi. Haqiqatan ham egnidagi palto bilan Halima uchinchini qishni o'tkazyapti. Hamida esa uni rosa ikki yil asrab-avaylab kiygan edi.

Ubaydulla Jo'rayevich qizi bilan ikkalovi ertalabdan sovg'a xarid etish uchun bozorga jo'nashdi. Rosa aylanib, axtarib, niyoyat, paltoning eng sifatli va qimmatbaho, oxirgi modasidan topib, sotib olishdi. Uni chiroqli qilib rangli qog'ozga o'ratishdi. Qilingan xariddan ota-bolaning ko'ngillari chog'. Ayniqsa, Halimaning og'zi qulog'ida.

Nazarida, ko'chadan o'tgan barcha ularning qo'lidagi paltosiga qiziqsirab qarayotgandek.

Ota-bola uylariga yaqin tuyulishda avtobusdan tushib qolib, mahallasi tomon

**MEHNATLARI ZOYE KETMADI**

Yoshlar yilida qilingan barcha ishlari yoshlarimiz kelajagini o'ylagan holda amalga oshirilmoqda. Zero, yoshlar bizning kelajagimizdir.

Xususan, Xorazm viloyatida «Yoshlar yili» o'z samarasini hozirdanoq bera boshladi. Shu yilning ilk oyalaridanoq viloyatimizda katta o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, viloyatimizda ilk marotaba xalq sevgan shoira va jurnalist Sharqiya Eshjonova tomonidan «To'maris izdoshlari» jurnalist ayollar klub qoshida «Mahorat maktabi» tashkil qilindi.

Ushbu «Mahorat maktabi» o'z faoliyatini ilk oyalaridanoq atrofiga yuzlab yosh ijodkorlarni jipslashtirdi. Ular birgalikda buyuk ishlar qilishiga ishonchimiz komil.

Bundan tashqari, klub qoshidagi «Mahorat maktabi»da yosh shoira, yosh muxbir, yosh to'quvchi-tikuvchi, yosh me'mor, yosh dizayner, yosh o'lkashunos-tarixchi, yosh pazanda va yosh sportchi yo'naliishlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda «To'maris izdoshlari» jurnalist ayollar klub qoshidagi «Mahorat maktabi» raisasi Sharqiya Eshjonovaning mehnatlari zoye ketmadi. Klub qoshidagi «Mahorat maktabi» nafaqat viloyatimizda, balki respublikamiz miqyosida faoliyat ko'rsata boshladi.

Iroda YO'LDSHEVA,  
«To'maris izdoshlari» jurnalist  
ayollar klub tinglechisi



Temur bobom naslimiz  
Ko'ngli osmon aslimiz.  
Alisherbek gulzorida  
Yashnar bahor faslimiz.  
Shiroq esa faxrimiz  
Quvonchimiz, baxtimiz.  
O'zbek dunyoda mashhur  
Yashnab turar shahrimiz.

Asaxon PARAYEVA,  
Sobir Rahimov tumanidagi  
242-maktabning 8-sinf o'quvchisi

**O'YLARIM**

O'ylarim arqondek uzundan-uzoq,  
Darbozdek turaman uning chetida.  
Qo'limda qalamim langardek titroq,  
Chuvalib qolaman qog'oz betida.

Ohista hislarim chigal yo'lidan,  
Tashlayman qadamim, peshonamda ter,  
Chopqillab boraman ilhom yo'lidan,  
Dilni yorib chiqar oq qog'ozga she'r!

Mirzakarim O'TBOSAROV,  
Toshkent viloyatidagi  
27-maktab o'qituvchisi

yura boshladi. Yakshanba kuni emassi, mahalladoshlarining aksariyati ko'chada kuymalanishib yurishibdi. Kimdir qishning qahriga «chiday olmay», yorilgan uyning tomini ayrim joylarini yamayapti, yana kimdir esa deraza oynalarini almashtirib, yangilarini o'rnatish bilan ovora. Ko'pchilik rostdanam salom-alikdan keyin did bilan o'ralgan qog'oz ichidagisi bilan qiziqishdi. Ubaydulla aka mahalladoshlariga qanaqa sovg'a xarid qilganini aytarkan, har zamonda ko'z qirini Halimaga tashlab qo'yardi. Qizining xursandligi shundoq porlab turgan ko'zidan ko'rinish turar edi. Unga qolsa, paltoni hozirning o'zidayoq kiyib, barchaga ko'z-ko'z qildirsa. Bilasiz, mahallada biror yangilik bo'lsa, juda tez tarqaydi. Xullas, kechga borib, ko'pchilik qo'shnilar Ubaydulla akaning qizi Halimabonu yangi paltoli bo'lganligini bilishar edi.

Dushanba kuni ertalab Halimabonu o'rnidan turib derazadan qarasa, hamma joy oppoq. Kechasi bilan qor yog'ib chiqibdi. Birinchi qor. U yana bir marta kechagi qilingan xariddan xursand bo'ldi. Qanday yaxshi, endi unga hech qanday sovuq o'tmaydi. Halimabonu yuvinib-taranib, yangi paltoni kiygancha maktab tomon yo'l oldi. Uni sinfdoshlari tavallud topgan kuni hamda yangi kiyim bilan muborakbd etishdi. Faqat partadoshi Kamolagina tabriklamadi. Chunki u o'sha kuni negadir darsga kelmagan edi. Qizi, unga nima bo'ldi ekan?!

Darsdan so'ng Halimabonu birinchi qor bilan tabriklash hamda hol-ahvol so'rash uchun Kamolalarnikiga yo'l oldi. Eshikni dugonasi ochdi. Ikkalovi miriqib suhbatlashishdi. Axir ular besh yillik qadron sirdoshlar edi-da.

Kamolalar oilasida yetti nafar farzand bor edi. Kamolaning otasi yuk mashinasi haydovchisi bo'lib, u ikki yil oldin avtohalokatga uchrab, hozirda nogiron bo'lib uyda yotibdi. Albatta, mahalla, qo'ni-qo'shni ko'p martalab bu oilaga yordam qo'lini cho'zishdi. Lekin qo'ldan berganga qush to'ymas, deganlaridek, bu oila moddiy jihatdan ancha qiynalib qoldi. Mana, ayni paytda ham Kamolaga qishki kiyim-boshga atalgan ozgina yig'ilgan pulga kuni kecha ro'zg'or uchun eng kerakli oziq-ovqat sotib olingani bois, u qishki kiyimsiz qoldi. Maktabga bormaganining ham asil sababi shu edi.

Kechki nonushtada oila a'zolari Halimabonudan yangi kiyim qanday yarashganini so'rashdi, u yana bir marotaba ota-onasiga noyob so'vg'a uchun minnatdorchilik bildirdi, dugonasi Kamola bilan bo'lgan voqeani ham aytib berdi. Oila a'zolarining barchasi bir muddat jim qolishdi. Sukunatni yana Halimabonuning o'zi buzdi. U agar ota-onasi qarshi bo'limasa, yangi paltosini dugonasiga sovg'a qilmoqchi ekanligini aytidi. Ubaydulla aka farzandining bunday oliyanobligidan faxrlanib, barakalla, ona qizim, haqiqiy do'st degani mana shunaqa bo'ladi, deya mehr bilan qizning sochini siladi va uni bag'riga bosdi.

Shunday qilib, kecha o'rabi kelingan qog'ozga yangi palto xuddi avvalgidek ixchamgina qilib yana qayta o'raldi. So'ng, ona-bola paltoni olib, Kamolalarning uyi tomon yo'l olishdi.

Ertasi kuni Halimabonu maktabga bordi. Uning egnida odatdagidek opasining paltosi edi...

Obiddin MAHMUDOV

*Humoyun Italiyada bo'lib o'tgan jahon championatida ishtirok etib, kumush medal sohibiga aylandi*

## HUMO QUSHIN QUHGAN HUMOYUN

Bolalikning beg'ubor damlarida qushlar yanglig' chug'urlashib parvoz qilishga shay turgan bir guruh bolakaylar safiga Humoyun ham kelib qo'shildi. Po'lat aka nuqul balandlarni ko'zlab yuradigan o'g'lida nimadir borligini erta ilg'adi. 1995-yil Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, «Mehnat - rohat» shirkat xo'jaligining

Ravot qishlog'ida tug'ilgan bu bolakay taqdir taqozosizi bilan Surxondaryo viloyatining Uzun tumanidagi 1-son ixtisoslashtirilgan bog'cha-maktab majmuasida 7-sinfacha tahsil oldi. Ayni kunda Toshkent shahridagi 58-umumiyo'rta ta'lim gimnaziyasining 8-sinfida o'qiyapti. Sportning karate turiga bo'lgan muhabbat Uzun tumanidagi «Uzun champion» klubida boshlagan edi.

U 2008-yil yanvar oyida Termiz shahrida sportning karate yo'naliishi bo'yicha bo'lib o'tgan viloyat championatida oltin medal sohibi bo'ldi. Toshkent shahrida o'tkazilgan VIII O'zbekiston championatida qatnashib, bronza medalini qo'lgakirtdi. 26-27-aprel kunlari Andijon shahrida bo'lib o'tgan «Oltin vodiy» ochiq turniri ham unga oltin medal berdi. 20-may kuni Denov shahrida bo'lib o'tgan karate bo'yicha O'zbekiston championatida esa oltin medal olgan Humoyun 2008-yil 14-22-oktabr kunlari Italiyada bo'lib o'tgan jahon championatida ishtirok etib, kumush medal sohibiga aylandi.

O'zbekiston karate federatsiyasi a'zosi 14 yoshli Humoyunning orzulari cheksiz, ustozlari Adham Yunusov va Dilshod Karimovlarning ko'rsatgan yo'l-yo'riqlaridan og'ishmay borayotgan Humoyun Shukurov yurting bayrog'ini yer yuziga ko'z-ko'z etib yurishni diliqa tugib qo'yan. Biz unga Humo qushi yor bo'lishini tilaymiz.

*Axtamqul KARIM*

## TUMOV DAN SAQLANING!



Kuz ham kelib, havo harorati ancha pasaydi. Bu paytlarda aholi orasida tumov kasalligi juda ko'paydi.

Tumov kasalligida ko'zga ko'rinnmaydigan viruslar bo'lib, ular faqat mikroskop orqali aniqlanadi.


Kasal bolaning isitmasi ko'tarilib, holsizlik paydo bo'ladi. Keyinchalik bosh og'rishi va aylanishi, et uyushib, sovuq qotishi kuzatiladi. Bu holatni sezgan bola bog'chaga, maktabga bormasdan, shifokor-pediatrga murojaat qilishi kerak. Ko'pincha bunday hollarda smorodina, maymunjon, behini qaynatib ichish hamda limonni ko'p iste'mol qilish lozim. Tana harorati ko'tarilganda, bemor shifokor buyurgan dori-darmonlarni to'liq iste'mol qilish lozim. Albatta bunday bemor uyda yotishi kerak.

Kasalni yuqtirmaslik uchun og'izga 2 qavatlari dokadan parda qilib taqib yurish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, tumov bilan kasal bo'lgan bolani idish-tovog'ini, o'rinn-ko'rpusini, sochig'ini alohida qilib qaynatib turish lozim. Bemor yotgan xonani 3 % li xloromin bilan pollarni yuvish, tez-tez oynalarni ochib, toza havo bilan almashtirish kerak. Uy a'zolari bemor bola bilan muomalada bo'lganda, og'iz va burunga doka tutib olish kerak. Doka havoni o'tkazadi-yu, ammo kasallik qo'zg'atuvchilarini o'zida saqlab, tomchilarini tutib qoladi. Yo'talgan va aksirgan bolaga qora sholg'omni mayda to'g'rab, dokada suvini siqb, 1 osh qoshiq paxta yog'i qo'shasiz. Ushbu tabiidiy dorni 1 osh qoshiqdan 3 mahal ichish tavsiya etiladi.


Va yana oddiy turpni qirg'ichdan o'tkazib olasiz va 1 donasini hisob bo'yicha 1 kg, turpg'a 0,5 stakan shakar aralashtirasiz va gaz pechiga 2 soatga olovg'a qo'yasiz. Ajralib chiqqan turp sharbatni 1 osh qoshiqdan 3 marta iste'mol qilasiz. Bu usul tumov, shamollash, tomoq og'riganida yaxshi davobor bo'ladi.

*Tohir IBRAGIMOV,  
oliy toifali shifokor, terapevt*


**Ikki qariyaning yoshlikgadi farqini toping.**



**Tasmalar qaysi tartibda yulib olinadi?**



**Kub sonini toping.**




*Tuzuvchi:  
Yusuf XUSHVAQTOV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod tumani  
23-maktab o'qituvchisi*

## SAVOLLAR

1. Bol.
2. Usmon .... (yozuvchi).
3. Non uyi.
4. Shifobaxsh o'simlik.
5. Odim.
6. Sekin.

*Tuzuvchi:  
Dilnoza  
EGAMBERDIYEVA*



Voyaga yetgan delfinning miysi 1700 grammni tashkil qiladi. Odamnik esa 1400 grammga yetadi, xolos. Ular geometrik figuralarni bir-biridan ajrata oladigan yagona jonivorlardir. Delfinlar qotib uxlamaydi. Miyasining bir yarim shari uxlasa, ikkinchisi qo'riqchilik qiladi.

Delfinlar bir-birlariga juda mehribon. Hech qachon yaralangan sheriklarini yolg'iz tashlab ketishmaydi. Har bir delfinning o'z nomi bo'ladiki, ular ham bir-birlarini ana shu nomlar bilan chaqirishadi.

\*\*\*

Ko'pchilik itlarda intellekt umuman rivojlanmagan, deb hisoblashadi. Bunday emas. Masalan, ular portret va fotosuratlarni juda yaxshi ajrata olishadi. Itlarning ko'plab zotlarida bilimdonlik avloddan-avlodga shunday o'tadi. Misol uchun, hatto endigina dunyoga kelgan nemis ovcharkasi ilk bor tashqariga chiqqandayoq xo'jayinining chap tarafida yurishi Jozimligini yaxshi biladi.



\*\*\*



Qushlar ichida qarg'alar eng aqli hisoblanishadi. Qarg'an sanashga, gapirishga va oddiy arifmetik misollarni yechishga o'rgatish mumkin. U ovqat izlaganda, hech nimadan tap tortmaydi. Shunday ustalik bilan o'g'irlilik qiladiki, hech qachon shu narsani qarg'a o'g'irlaganini isbotlay olmaysiz.

\*\*\*

Fillarning hayotini chuqur o'rgangan olimlar shunday xulosaga kelishdiki, ular uzoq masofadan turib ham ovozsiz axborot uzatish qobiliyatiga ega ekanlar.

## BULARNI UQIB OLING

Buyuk bobokaloningiz Abu Ali ibn Sino har bir komil inson hayotlari davomida ushbu hikmatlarga qat'iy roya etishni uqtirganlar:

1. To'g'ri so'zlash va to'g'ri ishslash.
2. Halol, pok mehnat qilish.
3. Barchaga insof, adolat bilan muomalala qilish.
4. Nafs orzulariga ortiqcha berilmaslik.
5. Olim-fozillar bilan suhbatlashish.
6. Kattalarning izzat-hurmatini joyiga qo'yish.
7. Kichiklarga shafqatli, marhamatlbo'lish.
8. Chin va samimiyo do'stlik.
9. Muhtojlarga yordam ko'rsatish, xayr-ehson qilish.
10. Nodonlarga nasihat etish, maslahat berish.

2008

Tong yulduzi  
3-noyabr

8

# Men jon-jahdim bilan yugurib, baroqni tutib, uning og'zidan yaralangan palaponni tortib oldim...

Obuna - 2009

## JURNALIST BO'LMOQCHI BO'LSANGIZ

«O'zbekiston - matbuoti»ni o'qing!

Qadrli bolalar!

Siz sevimli gazeta va jurnallaringizni yaratayotgan, qiziqarli maqolalar bilan qalbingiza ma'rifat urug'ini sochayotgan jurnalislarning kasbini tanlamoqchi bo'lsangiz, ko'p o'qing. Turli xabarlar yozib nashr qiling, nashrlarda e'lon qilingan ijod namunalarini o'qib,

mahorat sirlarini o'rganing.

Boshlovchi qalamkash uchun ijod maydoniga kirish oson emas. Shuning uchun journalistlik kasbning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Bu mashhur va mashaqqatli kasbni puxta egallash uchun yosh

ijodkorlarni tayyorlashi, bolalar gazeta va jurnallarini tinmay o'qib borish kerak. O'zining eng yaxshi mashqlarini ustozlari bilan muhokama qilib, nashrlarga yuborib turish lozim.

Aziz bolalar! Agar siz chindan ham mashhur journalistlar safidan joy olmoqchi bo'lsangiz, «O'zbekiston matbuoti» jurnalini olib o'qing. Bu jurnal bo'lajak kasbni tanlashingizda sizga yaqin yordamchi, maslahatchi, chinakam ustoz bo'la oladi. Uning sahifalarida siz quyidagi gazeta va jurnallar faoliyati bilan yaqindan tanishasiz, mohir journalistlar va ularning ijodi bilan oshno bo'lasiz. Xullas, bu jurnal sizning katta ijod maydoniga kirib borishingizga yo'l ochib boradi.


Agar «O'zbekiston matbuoti»ga 2009-yil uchun obuna bo'lishni xohlasangiz, istagan Aloqa bo'limiga kirib murojaat qiling, iltimosingizni baho keltirishadi.

**«O'zbekiston matbuoti» indeksi – 883**



## BUGUNNING

## «YANGI AVLOD»LARI



bayramlarini intiqlik bilan kutadi.

Sevimli sport turi: shashka.

– Do'stlarim ko'p, ularning davrasida bo'lish, yangiliklardan doim xabardor bo'lib turish men uchun maroqli. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali mena ana shunday imkoniyatni hadya etganidan xursandman, – deydi O'Imas Ro'ziyev.

Orzulari cheksiz, kelajakda o'z o'rnini topishga intilib yashayotgan tengdoshingizni ko'rib, quvondik. Bizunga orzularining ro'yobga chiqsin, deymiz.

Nazokatxon va Nafosatxon TOJIBOYEVA

## BO'RI XATO QILDI

L.Samoulenko

Bir bor ekan, bir yo'q ekan,  
uyini hech qachon yig'ishtirib  
tozalamagan bo'ri bo'lgan ekan.

Uning uyi shu darajada isqirt  
va nurab ketgan ekan-ki,  
yiqilib tushay dermish. Bir  
kuni o'sha yerdan fil o'tib  
qolibdi. U uyg'a bor-yo'g'i  
tegib ketgan ekan, uyning tomi  
qulab tushibdi.



– Uzr, qariya, – debdi  
fil, – tomni bir daqiqada  
o'z o'rniga o'rnatib  
qo'yaman.

Fil mehnat qilishni  
yaxshi ko'rар va har  
bir ishni qoyil qilib  
bajarar ekan. U tomni  
yangiday qilib o'rnatib qo'yibdi.

U mendan qo'rqadi, deb o'yabdi bo'ri, avval uzr so'rab, keyin  
tomni o'rnatib qo'yibdi. Balki undan yangi uy  
qurib berishni so'rarman? U mendan qo'rqib,  
aytganimni qiladi.

– Bu nimasi? – debdi u filga, –  
shovqinlab bu yerga kelib, uyimni buzzding, endi  
esa jo'nab qolmoqchisan. E, yo'q, avval menga  
yangi uy qurib berishingga to'g'ri keladi. Qani,  
tez-tez bo'laqol, ahmoq hayvon.

Fil bunga javoban hech narsa demabdi.  
Bo'rini olib, hovlidagi isqirt suv to'la hovuzga  
otib yuboribdi.

– Mana senga uy, – debdi-yu, burilib ketib  
qolibdi.

– Unga nima bo'ldi, – debdi bo'ri, – avvaliga  
uzr so'rab, endi esa... tushunolmay qoldim.

– Tushuhmaganingni sababi – sen  
ahmoqsan, – debdi daraxtda yong'oq chaqib  
o'tirgan olmaxon, – sen odob bilan qo'rjishning  
orasidagi farqni bilmading. Andishaning otini  
qo'rqoq qo'yma, deb shuni aytishadi-da.

Ingliz tilidan

Malika TURAXONNOVA tarjimasi

## MUSHUGIM XAFA BO'LDI



Bizning kattagina  
bog'imizda hamma mevali  
daraxtlar bor. Qushlarning  
betinim sayrab turishi  
dilga zavq bag'ishlaydi.

Biz qushlarni sevamiz,  
ular uchun uychalar yasab  
qo'yanmiz. Ro'zg'ordan  
chiqadigan non ushoq-  
larini ularga beramiz.  
  
Bolaligimdan kuzatuvchan edim. Bir kuni bog'imizdag  
qushlar inini kuzatib tursam, 3-4 ta palapon ochib  
chiqqaniga guvoh bo'ldim. Kunlar o'tdi, men kuzatishni  
davom ettirdim, palaponlarga bir juft qush tinimsiz suv,  
don tashirdi, palaponlar uchadigan bo'lishdi, go'yoki, ular  
endi o'z yo'lini topganga o'xshab ko'rindi. Hash-pash  
deguncha, ular ham qanot qoqib, shoxdan-shoxga

qo'nadigan bo'lishdi. Ona qushcha ularni barcha xavf-  
xatardan ogoh etib, atroflarida parvona edi.

Nogohon palaponlarning biri shoxdan yerga tushib ketdi.  
Buni kuzatib turgan baroq mushugimiz bir zumda ship etib  
qushchaning palaponini olib qochdi. Qushlar chug'urlashib  
qolibdi. Men jon-jahdim bilan yugurib, baroqni tutib, uning  
og'zidan yaralangan palaponni tortib  
oldim. Yarasiga dori qo'yib, uni  
hamrohlari safiga qo'shdim. Qushlar  
mening boshimda betinim charx urib  
aylanishdi, ularning minnatdorchilik  
bildirayotganini sezib, o'zim ham  
quvondim. Palaponlarning dushmani  
baroqvoy esa mendan bir necha kun  
arazlab yurdi.

Islom MO'MIN,  
Namangan viloyati,  
Uychi tumani



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
Fazliddin  
SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Feruza  
SOYIBJON qizi

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
  
Adadi - 21884  
Buyurtma N: J 6254



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga  
garashli bo'limagan xalqaro xayriya jamg'armasi.